

**ISHLAB CHIQRARISH KORXONASIDA BYUDJETGA TO'LANADIGAN SOLIQLAR HISOBI
VA TAHLILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019554>

Ilmiy rahbar: Baxromov Azizbek Alisher o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

Menejment kafedrasida assistenti,

Rustamov Xurshidbek Marufjon o'g'li

Andijon davlat texnika instituti

"Iqtisodiyoti va boshqaruv" fakulteti

"Buxgalteriya hisobi va audit" yo'nalishi 4-kurs talabasi

Email: xurshidbekrustamov0411@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonasi moliyaviy faoliyatida soliqlarni to'g'ri hisoblash va ularning byudjetga o'z vaqtida to'lanishining ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda korxonalar tomonidan to'lanadigan asosiy soliqlar turlari — foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), mol-mulk solig'i, yer solig'i va ijtimoiy to'lovlar shakllanishi hamda ularni hisobga olishning buxgalteriya tizimidagi o'rni ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *soliq hisobi, soliq tahlili, foyda solig'i, QQS, mol-mulk solig'i, ijtimoiy to'lovlar, byudjet tushumlari, buxgalteriya hisobi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется важность правильного расчета налогов и их своевременной уплаты в бюджет в финансовой деятельности производственного предприятия. Исследование показывает формирование основных видов налогов, уплачиваемых предприятиями – налога на прибыль, налога на добавленную стоимость (НДС), налога на имущество, земельного налога и социальных отчислений, а также их место в системе бухгалтерского учета.*

Ключевые слова: *налоговый учет, налоговый анализ, налог на прибыль, НДС, налог на имущество, социальные выплаты, бюджетные доходы, бухгалтерский учет.*

Abstract. *This article analyzes the importance of the correct calculation of taxes and their timely payment to the budget in the financial activities of a manufacturing enterprise. The study shows the formation of the main types of taxes paid by enterprises - profit tax, value added tax (VAT), property tax, land tax and social payments, as well as their place in the accounting system.*

Keywords: *tax accounting, tax analysis, profit tax, VAT, property tax, social payments, budget revenues, accounting.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar mamlakat byudjetini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Soliq tizimi davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish hamda ishlab chiqarish korxonalarining faoliyatini tartibga solish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan byudjetga to'lanadigan soliqlar hajmi davlat moliyaviy barqarorligining, iqtisodiy o'sish sur'atlarining va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Korxonada darajasida soliqlarni to'g'ri hisoblash, ularni o'z vaqtida to'lash va bu jarayonni samarali tahlil qilish moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda xo'jalik yurituvchi subyektning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq hisobi va tahlilining to'g'ri yuritilishi byudjet oldidagi majburiyatlarning bajarilishi, soliq yuki darajasining optimallashtirilishi va korxonada foydasining oshishiga xizmat qiladi.

Hozirgi raqamli texnologiyalar davrida, elektron hisob-kitob tizimlarining kengayishi soliq hisobini yuritish jarayonini soddalashtirib, shaffoflikni ta'minlamoqda. Biroq amaliyotda korxonalar tomonidan soliqlarni hisoblashda, ularni to'lash muddatlariga rioya etishda va soliq tahlilini olib borishda ayrim muammolar mavjud. Shu bois ishlab chiqarish korxonalarida byudjetga to'lanadigan soliqlar hisobini takomillashtirish va tahlilini samarali yo'lga qo'yish dolzarb ilmiy-amaliy masala sanaladi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi ishlab chiqarish korxonalarida byudjetga to'lanadigan soliqlar hisobini o'rganish, ularni tahlil qilish va mavjud muammolarni aniqlashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi. [1]

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish korxonalarida byudjetga to'lanadigan soliqlar hisobini o'rganish va tahlil qilishda zamonaviy ilmiy yondashuv va usullarda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usullari orqali soliqlar hisobining nazariy asoslari va amaliy jihatlari chuqur o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida taqqoslash usuli yordamida turli davrlardagi soliq tushumlari ko'rsatkichlari o'rganildi va ularning o'zgarish dinamikasi baholandi. Statistik tahlil usuli asosida byudjet daromadlari tarkibida soliqlarning ulushi va ularning iqtisodiy ahamiyati aniqlab berildi.

Ushbu tadqiqot jarayonida mantiqiylik, izchillik va obyektivlik tamoyillariga qat'iy amal qilindi. Ilmiy kuzatish va umumlashtirish usullari orqali ishlab chiqarish korxonalarida soliqlar hisobini yuritish amaliyoti tahlil qilindi hamda mavjud muammolar aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, tizimli yondashuv asosida soliq tizimining korxonada moliyaviy faoliyatiga ta'siri kompleks ravishda baholandi. Tadqiqotda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlardan keng foydalanildi.

Olingan natijalar asosida ishlab chiqarish korxonalarida soliqlar hisobini takomillashtirish va ularni samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Muhokama.

Byudjet daromadlarini tartibga solish yo'nalishlarini aniqlashda iqtisodiyotni o'rta muddatli rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalani tadqiq etishda ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik prinsiplari asos qilib olindi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, soliq tushumlarining elastikligi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasi, ishsizlik ko'rsatkichi va to'lov balansi bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, byudjetni tartibga solish tizimida daromadlarni to'g'ri bashoratlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon kelgusidagi byudjet davrlari uchun moliyaviy ko'rsatkichlarni aniqlash, byudjet jarayonining samaradorligini oshirish va shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.[2]

Fedorova va hammualliflar (2006) fikriga ko'ra, mahalliy byudjetlarning daromad hajmiga soliqlarning soliq bazasi, stavkalari va yuqori byudjetlardan ajratiladigan normativ ulushlar ta'sir ko'rsatadi. Mahalliy boshqaruv organlari daromadlar bazasini mustahkamlashni ikki yo'nalishda amalga oshirishi lozim: birinchidan, byudjet va soliq qonunchiligini takomillashtirish, ikkinchidan esa mahalliy soliqlarni samarali undirish orqali.

Istomina (2011) va Mishina (2010) o'z tadqiqotlarida soliq tushumlarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlash masalasida turlicha yondashuvlar mavjudligini qayd etishadi. Ularning fikricha, hozirgi amaliyotda soliqlarni markaziy va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlash tizimi hududlarning o'z daromad bazasini mustahkamlashga yetarli rag'bat bermaydi. Shu bois, mahalliy hokimiyat organlari soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni qoplash mexanizmini ishlab chiqishlari zarur.

Igudin (2003) ta'kidlashicha, dotatsiyalar mahalliy boshqaruv organlarining tashabbuskorligini susaytiradi va ularni markaziy byudjetga qaram qilib qo'yadi. Bu esa moliyaviy mustaqillikni pasaytiradi. Shuning uchun byudjetni tartibga solishda birinchi navbatda soliqlar hisobidan daromadlarni shakllantirish, dotatsiyalarga esa so'nggi chora sifatida murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Dorjdeev (2000) esa soliqlardan ajratmalarni barcha hududlar uchun bir xil emas, balki differensial me'yorlarda belgilash zarurligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv har bir hududning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olib, vertikal va gorizontal tenglashtirishni ta'minlaydi.

O'zbekistonlik olimlar ham ushbu masalaga katta e'tibor qaratganlar. Vahobov va Malikov (2012) mahalliy moliya tizimini davlat moliyasining muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatganlar. Qiyosov (2009) esa mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish uchun qimmatli qog'ozlar chiqarish va qarz majburiyatlarini jalb qilishni taklif etadi.

Xayriddinov (2018) mahalliy soliqlarning bir qismini doimiy ravishda mahalliy byudjetlarga birlashtirish zarurligini asoslab bergan. U soliq tushumlarini adolatli taqsimlash, mahalliy daromad bazalarini barqarorlashtirish va iqtisodiy erkinlashtirish sharoitida ularni oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Sirojiddinova (2010) moliyaviy yordam mexanizmlarini qayta ko’rib chiqish zarurligini, Yuldashev (2018) esa mahalliy moliyaviy salohiyatni mustahkamlash va daromadlarni oqilona boshqarish masalalarini ilgari suradi. Burxanov (2018) esa byudjetlar o’rtasida daromadlarni qayta taqsimlashda hududlar o’rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga alohida urg’u beradi.[3]

Elliott R. Morss fikricha, soliqlarni turli byudjet darajalari o’rtasida taqsimlashda asosiy mezon sifatida daromadlarning katta qismini nisbatan kambag’al hududlarga qaytarish tamoyili qo’llanishi lozim. Shu bilan birga, soliqlarni markaziyashtirmasdan, ularning maqsadli yo’naltirilishiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, kelgusida O’zbekiston byudjet tizimida hududlar o’rtasidagi moliyaviy muvozanatni ta’minlash, mahalliy byudjetlarning mustaqilligini kuchaytirish, soliq salohiyatini oshirish hamda sanoat ishlab chiqarishini kengaytirish orqali soliq bazasini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri bo’lib qolmoqda.

1-jadval.

Davlat byudjeti xarajatlarining 2024–2025 yillar uchun prognozi, t.rln so’m [4]

Ko’rsatkichlar	2024 yil	2025 yil
Davlat byudjeti xarajatlari, jami	312,8	362,5
YalMga nisbatan, foizda	24,0	23,5
1. Ijtimoiy soha xarajatlari	151,4	193,7
Ta’lim	69,1	95,1
Sog’liqni saqlash	33,4	41,3
Madaniyat	2,6	2,8
Sport	2,2	3,1
Fan	2,2	2,4
Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to’lovlari	18,6	22,2
Pensiya jamg’armasiga transferlar	16,0	19,0
Ipoteka kreditlari bo’yicha dastlabki badal va foiz to’lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	1,5	2,1
2. Iqtisodiyot xarajatlari, shu jumladan:	24,8	27,6
Suv xo’jaligi ekspluatatsiya xarajatlari	9,2	9,4
Shahar, tuman va posyolkalarni obodonlashtirish	4,5	5,0
3. Tabiiy gaz narxlaridagi tafovut uchun subsidiyalar	9,5	6,0
4. Elektroenergiya narxlaridagi tafovut uchun subsidiyalar	2,5	2,5
5. Markazlashtirilgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmasini rivojlantirish xarajatlari	31,7	38,9

Jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko’rsatadi, davlat byudjeti xarajatlari yildan-yilga oshib ketmoqda. Bu esa o’z navbatida byudjet daromadlarini, xususan, soliqlar tushumini

barqaror oshirib borishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli, ishlab chiqarish korxonalarida soliqlarni to'g'ri hisoblash va samarali boshqarish muhim ahamiyat talab etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarish korxonalarida qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va foyda solig'i o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korxonaning sof foydasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibida xomashyo va energiya resurslarining ulushi yuqori bo'lgan korxonalarda QQS bo'yicha hisobga olinadigan summalar hajmi ortadib kelmoqda. Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalarning (elektron hisob-fakturalar) joriy etilishi soliq hisobini yuritishda inson omilini kamaytirib, shaffoflikni ta'minlamoqda.

Biroq, amaliyotda ishlab chiqarish subyektlari mol-mulk solig'ini hisoblashda asosiy vositalarni qayta baholash va ularning amortizatsiya normalarini soliq qonunchiligi bilan muvofiqlashtirishda ayrim muammolarga duch kelmoqdalar. Bunday tafovutlar korxonalar moliyaviy hisobotida foydaning noto'g'ri aks etishiga olib kelishi mumkin.

Soliqlarni ularning obyekti va iqtisodiy mazmuniga ko'ra tasniflash — iqtisodiyotga bo'lgan ijobiy hamda salbiy ta'sirini tahlil qilishda muhim ilmiy va amaliy yondashuv hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekti bo'yicha soliqlar to'rtta asosiy guruhga ajratiladi:[5]

1. Aylanmadan olinadigan soliqlar;
2. Daromaddan olinadigan soliqlar;
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar;
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Aylanmadan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, bojxona to'lovlari hamda yer osti boyliklarining qiymatidan olinadigan soliqlar kiradi. Qonunchilikda "aylanma" tushunchasi ilgari bo'lgani kabi faqat realizatsiya hajmi bilan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborish qiymati bilan o'lchanadi. Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham ushbu turga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlar tarkibiga yuridik shaxslarning foyda (daromad) solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i hamda savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan olinadigan soliqlar kiradi. Bu toifaga ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i ham qo'shiladi.[6]

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar esa mol-mulk solig'i, ekologiya to'lovlari, avtomobillarni qayta sotish solig'i kabi turlarni o'z ichiga oladi.

Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlarga qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i hamda yuridik va jismoniy shaxslarning yer soliqlari kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) turlarga bo'linadi.

To'g'ri soliqlarni soliq to'lovchining o'zi to'laydi, ya'ni soliqning yuridik va haqiqiy to'lovchisi bir shaxs bo'ladi. Bu yerda soliq yukini boshqa shaxslarga o'tkazish holati mavjud emas. To'g'ri soliqlarga asosan daromad va mol-mulk soliqlari kiradi.

Egri soliqlar esa mahsulot, ish yoki xizmatni realizatsiya qiluvchilar tomonidan undiriladi, biroq ularning haqiqiy yukini iste'molchilar — ya'ni tovarni sotib oluvchilar — o'z zimmasiga oladi. Egri soliqlar tovar (yoki xizmat) narxiga ustama shaklida kiritiladi.[7]

Egri soliqlarning afzallik tomoni shundaki, ular milliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarning haddan tashqari ko'p eksport qilinishining oldini oladi hamda ichki bozorda tovarlar zaxirasini oshiradi. Shu bilan birga, bu soliqlar yordamida muomaladagi ortiqcha pul massasi kamaytirilib, iqtisodiy beqarorlikni jilovlashga xizmat qiladi. Biroq ular ishchi aholi real daromadining kamayishiga olib keladi.

Egri soliqlar stavkasining ilmiy asosda oshirilishi korxonalarining investitsion faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo ularni asossiz ravishda oshirish korxonalar mahsulotining sotilishiga to'sqinlik qilib, foyda va byudjetga tushumlarning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mahalliy byudjetlarda soliq va yig'imlar ulushi past bo'lgani sababli, ularning daromad va xarajat qismini muvozanatlashtirish ancha murakkabdir. Bu holatda, yuqori byudjetlardan — masalan, QQS yoki daromad solig'idan — ma'lum foizlarda ajratmalar berish orqali mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirish amaliyoti qo'llaniladi. Ba'zan, ushbu soliqlardan ajratma berilmasdan turib subvensiya yoki subsidiya ajratilishi ham kuzatiladi, bu esa mahalliy hokimiyat organlarining soliqlarni to'liq yig'ishga bo'lgan manfaatini pasaytiradi. Shu bois, mahalliy byudjetlarni rag'batlantirish maqsadida ularga soliqlardan 100 foizgacha ajratma berish maqsadga muvofiqdir.[8]

Xulosa va takliflar. Yurtimizda ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy faoliyatini barqaror yuritishda soliq siyosatining o'rni beqiyosdir. Soliqlar nafaqat davlat byudjetining asosiy daromad manbai, balki iqtisodiy jarayonlarni tartibga soluvchi muhim moliyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ishlab chiqarish korxonasida soliqlarni to'g'ri hisobga olish va ularni o'z vaqtida byudjetga to'lash, korxonaning moliyaviy intizomini ta'minlaydi, hisob-kitoblarning shaffofligini oshiradi hamda soliq organlari bilan o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi.

Soliq turlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, korxonalar tomonidan to'lanadigan asosiy soliqlar — foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk va yer soliqlari — davlat byudjeti daromatlari tarkibida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga, soliq yukining oqilona taqsimlanishi korxonalar faoliyatini rag'batlantirish, investitsion muhitni yaxshilash va ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida, ishlab chiqarish korxonasida soliqlarni to'g'ri hisobga olish korxonaning moliyaviy intizomini ta'minlaydi va shaffoflikni oshiradi. Soliq yukini optimallashtirish va raqamli hisob tizimini takomillashtiradi va ishlab chiqarish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: Adolat nashriyoti, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5535-son Qarori. – Toshkent, 2024-yil.
3. Karimov, A. & Jo‘rayev, B. Soliqlar va soliqqa tortish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022.
4. Muallif tomonidan ishlangan
5. Qodirov, Sh. Davlat byudjeti va soliq tizimi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
6. www.soliq.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy veb-sayti.
7. Journal of Marketing, Business and Management (JMBM). – Vol. 3, Issue 1, May 2024.
8. Mamatqulova, G. Korxonalar moliyasi va soliqlarni boshqarish. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2023.